

O'ZBEK TILIDA TOVUSH O'ZGARISH HODISASI(FONETIK JARAYONLAR)

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va madaniyati instituti
talabasi Axtamova Latofat*

Annotatsiya:Quyidagi maqolada o'zbek tilida tovush o'zgarish hodisasi- uning qonuniyatlari,qo'llanilish jarayonlari,va shevalarda so'z tejamkorligini ta'minlovchi unsur ekanligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi,izohlanadi,tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:Assimilatsiya, dissimilatsiya, proteza, eliziya, reduksiya, metateza, epenteza, sinkopa, apokopa va shu.k

Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi.Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib,undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan.Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi.Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi.

Quyida o'zbek tilida uchrovchi bir qancha fonetik hodisa nomlari keltiriladi: Maqolada badiiy adabiyotlarda uchrovchi fonetik o'zgarishga uchragan ba'zi misollarni keltirib o'taman.

Assimilatsiya:Nutq tovushi qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib,biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi.Bunday hodisa assimilatsiya deyiladi.Assimilatsiya ikki xil bo'ladi:Progressiv va regressiv assimilatsiya.Agar oldingi tovush keying tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa,progressiv assimilatsiya yuz beradi:ket-di ketti,ayt-di aytti,ot-dan ottan,yurak-ga yurakka.Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib,uni o'ziga o'xshatsa,moslashtirsa regressiv assimilatsiya yuz beradi.Yigit-cha yigichcha,bir-ta bitta,uch so'm us so'm,tuz-siz tussiz,birla billa atlas allas,tut-cha tuchcha.

Assimilatsiya to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin.

To'liq assimilatsiya:Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga aynan moslashadi(ular o'rtasida neytrallashuv sodir bo'ladi):nonvoy-novvoy,terakga-terakka,tilakga-tilakka,otni-otti,tushsin-tussin,yurakga-yurakka.

To'liqsiz assimilatsiya:Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: tanbur-tambur,shanba-shamba,yonbosh-yombosh,jonbozlik-jombozlik,yonma-yon-yomma-yon, ko'rinmaslik-ko'rimmaslik.Bu so'zlarda "n" (til-tish undoshi)lab-lab "b"ga faqat artikulatsion o'rni jihatdan moslashgan (lab-lab "m"ga o'tgan),ammo boshqa belgilari moslashmagan.

Kontakt assimilatsiya: Ketma-ket joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi

Distant assimilatsiya: So'z tarkibida bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi: sichqon-chichqon, soch-choch kabi.

Dissimilatsiya: (lot. dissimilatio - "noo'xshashlik"). Bir xil tovushlarning o'zaro ta'siri ostida vujudga kelgan noo'xshashlik dissimilatsiya deyiladi.

Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa **progressiv dissimilatsiya** yuz beradi: <Boisi- o'zbek bilan no'g'ayni tili bir, dini bir, urf-odati bir.>

(T. Murod, Otamdan qolgan dalalar) zarar-zaral, zarur-zaril kabi.

Oldingi tovush o'zgarsa, **regressiv dissimilatsiya** yuz beradi: <-Ha muncha hayallading kim ekan?-dedi> (A. Qahhor, "Anor" hikoyalar to'plami)

Malol-maral, koridor-kalidor kabi.

Proteza: So'z boshida tovush orttirilishi: a) rus-o'ris, ro'za -o'raza, ro'mol-o'ramol, rayhon-o'rayhon, rozi-o'rozi, rais-o'rais, rang-o'rang, ro'zg'or-o'ro'zg'or kabi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda sonor ____ "r" tovushi so'z boshida qo'llanmagan, demak, uni so'z boshida qo'llash ko'nikmasi ham bo'lmagan, bu hol boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar boshidagi sonor "r" dan oldin bir unlik orttirilishiga olib kelgan, shu tariqa olinma so'zning fonetik tarkibi turkiy so'zning fonetik tarkibiga moslashtirilgan; b) shkaf-ishkop, stakan-istakan, spravka-ispravka, stol-istol, stul-istul, shtraf-ishtaraf, stansiya-istansa, stadion-istadion, skameyka-iskameyka, stalba-istalba kabi: 1 <O'rislar mening kalamni yeyish uchun sen no'g'aylarni bekorga tanlamadi>. (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar). 2 <Unday desang boshput olib, o'rusvoyning religa tushib, "hayt!" deb... Makkatulloga jo'nab qolaman!> (Cho'lpon Kecha va kunduz) Turkiy tillarda so'z yoki bo'g'in boshida (pozitsion omil) undoshlar o'zaro birika olmaydi (sintagmatik omil), ayni shu qonuniyat yuqorida keltirilgan ruscha o'zlashmalar boshida bir unlik orttirilishiga, demak, shu so'zlarning turkiy til qonuniyatiga moslashtirilgan shaklining yaratilishiga olib kelgan.

Eliziya-unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi:

a) birinchi so'z oxiridagi unli tovush tushib qoladi: yoza oladi-yozoladi, bora oladi-boroladi, qora ot -qorot, chiza oladi-chizoladi, qila oladi-qiloladi; < Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi> (Cho'lpon, Kecha va kunduz)

b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: borar ekan-borarkan, borar emish-borarmish, ketgan emish -ketganmish, chizar ekan-chizarkan, mulla aka-mullaka, ne uchun-nechun, qayin ini-qayni kabi:

d) Abdusattor so'zining Absattor, Abdujabbor so'zining Abjabbor, Abdusalim so'zining Absalim, olib kel so'zining opke tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan ko'rinishi hisoblanadi.

Reduksiya-soʻzning birinchi boʻgʻinida biron unlikning, odatda, tor unlikning kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan: bir, til, bil, qil, chiq soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi i unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi i unlisi meyordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada, birinchi boʻgʻindagi i unlisi kuchsizlanadi va eshitar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: bilak, tilak, biroq, bilan, qishloq, chiroq, tulki, shoyi. Birinchi boʻgʻindagi urgʻuning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi **reduksiya** hodisasiga misol boʻladi (reduksiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi "kuchsizlanish", "orqaga qaytish", pastga tushish demakdir). Reduksiyaga quyidagi soʻzlarning birinchi boʻgʻinida kelgan "i" ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol boʻla oladi: pishiq, shira, pishak, (qiliq), (ichak) kabi. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelishi ham uchraydi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi. Masalan, burun-burni, singil-singli, koʻngil-koʻngli, boʻyin-boʻyni, egin-egni, keyin-keyni, qorin-qorni, ogʻil-ogʻli, oʻrin-oʻrni singari.

Metateza-ogʻzaki nutqda baʼzan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning oʻrin almashish hodisasi: ahvol-avhol, daryo-dayro, yomgʻir-yogʻmir (yogʻmur), tuproq-turpoq, tebratmoq-terbatmoq, yamlamoq-yalmamoq, oʻrganmoq-oʻgranmoq, toʻgʻramoq-toʻrgʻamoq, aylanmoq-aynalmoq, kiprik-kirpik, qamramoq-qarmamoq, qulf-qufl, qo, shni-qoʻnshi, yosti-qyotsiq va boshqalar.

Epenteza-soʻz oʻrtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar tarkibida yuz beradi-ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlariga moslashtiriladi (soʻz yoki boʻgʻin boshida qatorlashib kelgan ikki undosh orasida bir unli orttiriladi: fikr-fikir, hukm-hukum, doklad-dokalad, klass-kilass, plan-pilon, traktor-traktir, fasl-fasil, sinf-sinif, fayz-fayiz, qism-qisim, aql-aqil, ilm-ilim).

Maʼlumki turkiy soʻzlar tarkibida ikki unli ham yonma-yon qoʻllanmaydi. Bu hol Said, oila, soat, shoir, doim, biologiya, radio, tabiat, shariat, material, teatr,

okean, million, mozaika, ukrain, stadion kabi oʻzlashmalarning jonli tilda Sayid, oyila, sogʻat (sohat) deb (ikki unli orasida bir undoshning orttirilib) talaffuz qilinishiga sabab boʻladi. <"Kobra" matiryal toʻngʻillab.> (Oʻ. Hoshimov, Ikki eshik orasi

Sinkopa-hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, direktor, direktir, generator-generatir, rektor-rektir, doctor-doktir (duxtir), eksport ekspirt, projektor-projektir, burun-burnim, burning, burni; oʻgʻil-oʻgʻlim, oʻgʻling, oʻgʻli kabi soʻz oʻrtasidagi unlikning tushib qolishi baʼzan tarixiy (diaxron) planda sodir boʻlgan boʻlib, hozir sezilmasligi ham mumkin: olcha-olicha, kelyapti-kelayapti, boryapti-borayapti kabi. Oʻzbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: pastqam-pasqam, pastda-pasda kabi. Ularning baʼzi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: erdi-edi, erkan-ekan, ermish-emish kabi.

Apokopa-so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushish hodisasidir:do'st-do's,xursand-xursan,gazeta-gazit,smena-smen,g'isht-g'ish,go'sht-go'sh,obro'y-obro',podshoh-podsho,mashina-moshin,baland-balan,Samarqand-Samarqan,pozeyd-poyez,past-pas,artist-artis,daraxt-darax. <-Olibdi Toshkanniyam olibdi.>(T.Murod,Otamdan qolgan dalalar)

Epiteza.So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undosh tovushdan so'ng "a" tovushining qo'shilish hodisasidir:disk-diska,bank-banka,tank-tank,kiosk-kioska,otpusk-otpuska kabi.

Sinerezis hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi.Ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz etiladi:maorif-mo:rif,saodat-so:dat,shahar-sha:r,qiroat-qiro:t,jamoat-jamo:t,jamoa-jamo:a,maosh-mo:sh,munshaot-munsho:t.Bu hodisa asl o'zbekcha so'zlarga xos emas.

Yuqorida tilshunoslikda faol qo'llanuvchi fonetik hodisalarga ta'rif a misollar berildi.Bu kabi fonetik jarayonlar ko'plab uchraydi, chunki tilimiz boy va nihoyatda rang-barang.Bu yerda faqat eng ko'p uchrovchi turlari keltirildi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki,bu kabi fonetik jarayonlar so'z va so'z qismlarining talaffuzdagi qulaylikka intilishi,nutq tempining tezligi,qo'shni tovushlarning bir-biriga ta'siri hamda tarixiy-lingvistik omillar bilan belgilanadi.Assimilatsiya,dissimilatsiya,proteza,eliziya,reduksiya,maromda va qulay talaffuz qilinishini ta'minlaydi.Ushbu jarayonlar o'zbek tilining fonetik tizimini boyitadi,talaffuz normasi va adabiy me'yorning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hozirgi o'zbek adabiy tili.1tom-Fan,1966.-391b.
- 2.Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi.-T.:Fan,2009-222b.
- 3.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.T.:Fan va texnologiya,2009.-414b.
- 4.Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi.-T.:Fan,2013.-424b.
- 5.Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.-T.:Barkamol fayz media,2016-224b.

Internet saytlari:

- 6.Wikipedia.org
- 7.Oefen.uz